

PISA TALABLARI VA ZAMONAVIY TA'LIMDA MATN BILAN ISHLASH KOMPITENSIYASI

Po'latova Marjona Inomjonovna

UzFinPedI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti,

1-bosqich magistranti

polatovamarjona126@gmail.com +998888951210

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA xalqaro baholash dasturining zamonaviy ta'limdagi o'rni va ahamiyati, ayniqsa o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Unda PISA tomonidan belgilangan savodxonlik mezonlari hamda matnni tushunish, tahlil qilish va izohlash kabi ko'nikmalarning bugungi ta'lim jarayonida nechog'lik dolzarb ekani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: PISA, kompetensiya, savodxonlik, tahlil, matn, muammo, yechim, topshiriq, baholash, mezon, nutqiy kompetensiyalar

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение международной программы оценки PISA в современном образовании, в частности ее роль в формировании текстовой компетентности учащихся. Анализируется актуальность критериев грамотности, установленных PISA, и навыков понимания, анализа и интерпретации текста в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: PISA, компетентность, грамотность, анализ, текст, проблема, решение, задача, оценка, критерий, речевые компетенции

Abstract. This article discusses the role and importance of the PISA international assessment program in modern education, especially its role in developing students' competence in working with text. It analyzes the relevance of the literacy criteria established by PISA and the skills of understanding, analyzing, and interpreting text in today's educational process.

Keywords: PISA, competence, literacy, analysis, text, problem, solution, task, assessment, criterion, verbal competences

Zamonaviy ta'limda bir qator xalqaro o'quvchilarni baholash dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida PISA dasturi alohida o'rin tutadi. Mazkur dastur o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularni amaliy hayotda qo'llay olish qobiliyatini ham baholashga qaratilgan bo'lib, bu orqali ta'lim tizimidagi muammo va yutuqlarni aniqlash imkonini beradi.

Dunyo bo'ylab ta'lim sifatini baholashni takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development) o'quvchilarning bilimi va bilganlari bilan nima qila

olishlarini o‘rganish, ta’lim natijalarining sifati va tengligini taqqoslash, boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladigan siyosat va amaliyotlarni o‘rganish orqali ta’lim sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradigan keng qamrovli xalqaro baholash PISA (The Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarini olib bormoqda¹.

PISA (Programme for International Student Assessment) – bu Xalqaro Talabalar Baholash Dasturi, OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tomonidan o‘tkaziladi. Har 3 yilda 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha funksional savodxonligi baholanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning real hayotdagi vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyatini aniqlash hisoblanadi. PISA faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki o‘quvchilarning kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholashga e’tibor qaratadi².

Yuqoridagi fanlardan tashqari ushbu baholash tizimi tilshunoslik uchun ham yuksak ahamiyatga ega. Chunki tilshunoslikda o‘quvchilarning matnni tushunish, axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, turli kontekstlarda til vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi. PISA baholashida aynan shu kompetensiyalar o‘lchanadi va rivojlantiriladi. Shu sababli, tilshunoslik fanining mazmuni va o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, PISA talablariga moslashtirish zarur hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning nafaqat tilga oid bilim va ko‘nikmalarini, balki umumiy savodxonlik darajasini ham oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, PISA baholash dasturida matn bilan ishlashning bir qancha foydali tomonlari bor. Bularning barchasi o‘quvchi savodxonligini oshirishga qaratiladi. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

1. *Matnlar hayotiylik asosida shakllantirilishi* – PISA testlarida o‘quvchilar faqat grammatik bilimlarni emas, balki turli shakldagi matnlarni (maqola, e’lon, esse, elektron xat, hikoya) tushunishi va ulardagi ma’lumotlarni tahlil qilishi kerak. Kundalik hayotda ham inson turli matnlar bilan ishlaydi, shuning uchun bu ko‘nikma amaliy ahamiyatga ega.

2. *Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o‘stirish* – matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi berilgan axborotni o‘qiydi, o‘rganadi, tahlil qiladi, asosiy g‘oyani ajratadi, muallifning fikrini baholaydi va o‘z nuqtai nazarini bildirishga harakat qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

3. *Kerakli ma’lumotlarni izlab topish va qayta ishlash* – PISA testlari o‘quvchidan matndan kerakli ma’lumotni topish, ularni solishtirish, umumlashtirish

¹ Kurbaniyazov Sh. K., Allayorova X. TA’LIM SIFATINI BAHOLASH JARAYONINI PISA XALQARO DASTURI TALABLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH YO‘LLARI, International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches”
March 13, 2024

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi

yoki xulosa chiqarishni talab qiladi. Bu esa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini kuchaytiradi, xotirasini mustahkamlaydi.

4. *O‘quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlash, o‘stirish* – matn bilan ishlash orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi va unga bog‘liq bo‘lgan bilish, tushunish, qo‘llash, mulohaza kabi darajalari aniq o‘lchanadi. Negaki matnni o‘qish faqat so‘zlarni bilish emas, balki ma‘noni tushunish, ulash va undan to‘g‘ri foydalanishni ham talab qiladi.

5. *Tilshunoqlik va boshqa fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik (fanlararo aloqa)* – PISA baholashida matn bilan ishlash faqat tilshunoslik emas, balki matematika, tabiiy fanlar va boshqa sohalaridagi matnlarni tushunishga ham yordam beradi. Bu o‘quvchilarning fanlararo bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Keltirilgan fikrlar asosida PISA asosida matn bilan ishlashga doir topshiriqlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu topshiriqlar o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, talqin qilish va matndan kerakli ma‘lumotlarni topish kabi ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu topshiriqlar turli formatlarda bo‘lishi mumkin – matnga oid savollar, jadval yoki diagrammalar asosida berilgan vazifalar, shuningdek, matn mazmuniga tanqidiy yondashishni talab qiluvchi savollar ham uchraydi.

PISA baholash tizimi o‘quvchilarning faqatgina matnni o‘qish tezligini emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, mantiqiy xulosa chiqarish va axborotni qayta ishlash bo‘yicha tayyorgarligini tekshiradi. Ayniqsa, zamonaviy PISA topshiriqlari real hayotga yaqin matnlar asosida tuzilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli o‘qituvchilar va o‘quvchilar matn bilan ishlash malakalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishlari zarur. PISA uslubida matn bilan ishlashga doir namunaviy topshiriqlarga e‘tibor qaratamiz.

I Matn

Kechqurunlari uyimizda hamma kechki ovqatga yig‘ilganida dasturxon atrofida suhbat qizib ketar edi. Dadam shunda o‘zlarining yoshliklari o‘tgan zamondan, o‘sha biz uchun afsonaga o‘xshagan voqealarni aytib, ba‘zan kuldirib, ba‘zan o‘yga toldirib qo‘yar edilar.

Dadam bir pas bo‘sh vaqtlari bo‘lsa o‘qirdilar, mashinada ketayotib ham, samolyotda uchayotib ham, kemada suzayotib ham kitob o‘qir edilar. Agar bizning uyimizga keladigan gazeta, jurnallarning nomini eshitsangiz hayron bo‘lardingiz. Dadam obuna uchun pul ayamas edilar. Shuncha yozishlari, do‘stlari, qarindosh-urug‘lari, yor-birodarlari bilan muloqotda bo‘lishlaridan tashqari, o‘qishga albatta vaqt topar edilar. Eng yaxshi ko‘rganlari kechasi o‘qish edi. Yotoqxonalarida har kuni kechasi o‘qish uchun kitob g‘amlab qo‘yar edilar.

(“Gulxan” jurnali)



Topshiriqlar (1-4)

1. Matnni o‘qing va matnga mos sarlavha qo‘ying. (1 ball)

**Dadamning xobbisi*

2. Matn kimning tilidan hikoya qilingan? (1 ball)

- a) Yozuvchi tomonidan
- b) *Bola tomonidan
- c) Qarindoshi tomonidan

3. Ushbu variantlardan qaysilari matn tarkibida kelgan ibora ma’nosiga mos? (3 ball)



Eslamoq



Ko‘nglidan
o‘tkazmoq



*Uzoq fikrlamoq

4. Ushbu rasmlardan qaysi biri matnning asosiy g‘oyasini ifodalagan? Fikrlaringizni rasm tagiga yozma bayon qiling. (3 ball)



*chunki
matnda
kitobxon ota
obrazi
tasvirlangan.

?

?

II

Matn

(1) Insoniyatning bakteriyalarga nisbatan o‘ziga xos qarashlari bor. Hammamiz ko‘pchilik bakteriyalar zararli ekanini bilamiz. Barcha infeksiyalar ma’lum turdagi bakteriyalar tomonidan qo‘zg‘atiladi. Shuning uchun, odamlar bu bakteriyalarga qarshi kurashadi. Shu bilan birga, agar boshqa bakteriyalar bo‘lmaganida, Yerdagi hayot bo‘lmas edi. Inson ba’zi turdagi bakteriyalarni ko‘paytiradi, chunki ularga muhtoj va ulardan foydalanadi. Odatda, bakteriyalar o‘simliklar dunyosining eng past tabaqasida turadi deb hisoblanadi. Har bir bakteriya yadrosiz tirik materiyaning alohida zarrasidir. O‘rtacha ularning diametri taxminan 0,001 mm. Ulardan ba’zilari shunchalik kichikki, hatto oddiy mikroskopda ham ko‘rish imkonsiz.

(2) Bakteriyalar odatda uch xil — dumaloq kokklar, tayoqchalar shaklidagi batsillalar va spiralsimon spirillalar ko‘rinishida uchraydi. Ular oddiy ikki qismga bo‘linish orqali ko‘payadi. Qulay sharoitlarda ular juda tez ko‘payadi. Yaxshiyamki, tabiatda bu ko‘payishni nazorat qilishning bir necha yo‘li mavjud. Aks holda, bakteriyalar dunyoning butun yuzasini egallab olardi. Nobud bo‘lgan o‘simlik va hayvonlarning chirishini ta’minlaydigan bakteriyalar odamlar uchun juda foydalidir. Ular nafaqat organizmlarni tashkil etuvchi o‘lik to‘qimalarni oddiy birikmalarga ajratadi, balki chirigan bakteriyalarsiz yer foydasiz o‘lik moddalar bilan qoplanib, unda yashash uchun joy qolmagan bo‘lardi.

(3) Boshqa ayrim bakteriyalar fermentatsiyani keltirib chiqarishi sababli foydali. Bizga sutni achitish va shirin meva sharbatlarini bijg‘itish kabi fermentatsiya turlari ancha tanish. Ko‘pgina sanoat jarayonlari bakteriyalar fermentatsiyasi hisobiga mavjud. Ajoyib sariyog‘ ishlab chiqariladigan qaymoqning yetilishi ham fermentatsiyaga asoslangan. Ko‘pgina pishloq turlari o‘zining ajoyib ta’miga bakterial jarayonlar natijasida ega bo‘ladi. O‘simliklar o‘zi foydalanadigan nitratlarni olishi

uchun azotni boshqa elementlar bilan bog‘laydigan bakteriyalarsiz yashay olmasligini ham yaxshi bilamiz.

(Manba: <https://sinaps.uz/bilasizmi/11051/>)




Topshiriqlar (4-9)

4. Bakteriyalar juda ham kichikligidan ularni mikroskopda ko‘rib bo‘lmaydi. (2 ball)

To‘g‘ri

Noto‘g‘ri*

5. Matn tarkibida kelgan sifatlarni kataklar ichiga joylashtiring. (2 ball)




6. Matn mazmunida aks etgan ma’lumotni aniqlang. (2 ball)

- a) O‘simlik va hayvonlarning chirishini ta’minlaydigan bakteriyalar odamlar uchun foydalidir.
- b) Odamlar bakteriyalarga muhtoj bo‘lganligi uchun ularni ko‘paytirishga o‘z hissasini qo‘shadi.
- c) *Bakteriyalar qulay sharoitlarda ikki qismga bo‘linish oqibatida ko‘payadi.
- d) Infeksiyalarning deyarli yarmi bakteriyalar tomonidan qo‘zg‘atiladi.

7. Bakteriyalar qanday sabablarga ko‘ra foydalidir? (2 ball)

*(*o‘lik to‘qimalarni oddiy birikmalarga ajratishi va faol moddalar hosil qilishga ko‘ra foydalidir)*

8. Raqamlab ko'rsatilgan matnlarga mos sarlavhalarni toping. (2 ball)



9. Sizningcha, hayotimizda bakteriyalarning foydali jihatlari ham bormi? Haqiqatdan ham mavjud bo'lsa fikrlaringizni dalillar bilan izohlashga harakat qiling.

(5 ball)

Ushbu topshiriqlar o'quvchilarning o'qilgan matndan asosiy ma'lumotlarni ajratib olish, mazmunni tushunish, mantiqiy xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, savollarda zid fikrlarni aniqlash, asosiy g'oyani topish kabi elementlar PISA talablariga to'liq mos keladi. Tanlangan matnlar o'quvchilar hayotiga bevosita taalluqli, zamonaviy va dolzarb mavzularni o'z ichiga oladi. PISA topshiriqlarining asosiy tamoyillaridan biri ham o'quvchining real hayotga doir vaziyatlarda o'qigan matnidano foydalana olishidir. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini ko'rish imkoniyatini beradi. Shu asosida o'qituvchilar o'z darslarini yanada maqsadli va samarali tashkil qilishi mumkin. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash, ularning mavzuga doir kuchli va zaif tomonlarini ko'rish imkoniyatini beradi. Topshiriqlarda faqatgina matndan tayyor javoblarni topish emas, balki o'quvchining shaxsiy fikri va mulohazasini bildirish imkoniyati yaratildi. Ayniqsa, "Sizningcha" deb boshlanadigan va o'quvchini fikrlashga undaydigan savollarning mavjudligi zamonaviy ta'limda shaxsiy dunyoqarashni baholashda muhim ko'nikma hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kurbaniyazov Sh. K., Allayorova X. TA'LIM SIFATINI BAHOLASH JARAYONINI PISA XALQARO DASTURI TALABLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH YO'LLARI, International scientific and practical conference "Economics,

management and digital innovation in education: modern trends and approaches”
March 13, 2024

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi
3. Matn lingvistikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / M. Yo‘Ldoshev, S. Muhamedova, M. Saparniyazova. – Toshkent: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021. –188 b.
4. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0018/1.12.pdf>